

Панжабтети - 1-10 нозир  
ОТМ. 10-20 нозир  
Рец. - 1-10 ян.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining  
2022 yil 22 aprel dagi  
143 -son buyrug'iga 6-ilova

## "Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori" va "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzularida "Eng yaxshi insho" tanlovining NIZOMI

### I. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlar agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan 2022 yil 20 yanvarda tasdiqlangan Respublika bo'yicha ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, diniy bag'rikenglik hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar "Yo'l xaritasi", Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan 2022 yil 3 fevralda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi tizimini yaratish bo'yicha 2022 yil uchun "Yo'l xaritasi" da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. "Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori" va "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzularida "Eng yaxshi insho" tanlovida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

3. Tanlov "Eng yaxshi insho" nominatsiyasida masofaviy o'tkaziladi.

4. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish jarayoni oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori va bo'lim boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

### II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

5. Tanlovning asosiy maqsadi – talabalar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini mazmun-mohiyatini tushuntirish, huquqiy savodxonligini oshirish, "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" tamoyili asosida yoshlarda huquqbuzarlik, korrupsiyaga, jinoyatchilikka qarshi toqatsizlik ruhini shakllantirish, qonunlarni hurmat qilishga, burch va majburiyatlarini vijdonan bajarishga o'rgatishdan iborat.

6. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, ularni turli buzg'unchi g'oyalarga ta'siriga tushib qolishning oldini olish;  
talabalarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish;  
talabalarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, o'z iqtidorlarni namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni har tomonlama rivojlantirish;

talabalarda yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish;

chora-tadbirlar dasturining mazmun-mohiyati targ'iboti ta'sirchanligini oshirish;

yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga,

Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash;

talabalarning "Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori" va "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzularida "Eng yaxshi insho" tanlovi ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish.

### III. Tanlovni o'tkazish bosqichi va muddatlari

7. "Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori" va "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzularida "Eng yaxshi insho" masofaviy tanlov uch bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – akademik guruhlar talabalar o'rtasida joriy yil noyabr oyining birinchi o'n kunligida o'tkaziladi;

ikkinchi bosqich – fakultetlararo ularning g'oliblari o'rtasida noyabr oyining ikkinchi o'n kunligida o'tkaziladi;

uchinchi bosqich (yakuniy) – oliy ta'lim muassasalari g'oliblari o'rtasida joriy yil dekabr oyining birinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

#### IV. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

8. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichini o'tkazish bo'yicha oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan Tashkiliy qo'mita va soha professor-o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Hakamlar hay'ati tuziladi.

9. Talabalar tomonidan yo'nalishlar bo'yicha tayyorlangan ijodiy ishlar fakultetlar va OTM kesimida tuzilgan Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

10. Tanlovning uchinchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovning yakuniy bosqichi g'oliblarini aniqlash bo'yicha Hakamlar hay'ati tuziladi va tanlov g'oliblari Tashkiliy qo'mitaning yig'ilish bayoni orqali tasdiqlanadi. Hay'at tarkibiga soha bo'yicha yetuk mutaxassislar jalb etiladi.

#### V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

11. Insholar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:  
mavzuning mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi (ilmiy, rasmiy, badiiy kriteriyalariga mos va mavzu dolzarbligiga ko'ra);

ijodiy ishlarning stilistik va grammatik jihatdan to'g'ri yozilganligi;  
mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;

mavzuni yoritishda o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi;

mavzuni yoritishda hayotiy misollardan keng foydalanilganligi;

mavzuga oid dolzarb masalalar, ularning yechimlari to'g'risida takliflar keltirilganligi;

12. Taqdim etiladigan maqolalar hajmi 8-10 dan 15-20 betgacha bo'lishi mumkin hamda "Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori" va "Korupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzularidan birida bo'lishi mumkin.

13. Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 70 ball).

#### VI. Hujjatlarni taqdim etish tartibi

14. Oliy ta'lim muassasalarida insholar tanlovi bo'yicha g'olib bo'lgan, 1-o'rinni egallagan talabalarning hujjatlari (*beyonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari va 10x15 hajmdagi fotosurati(elektron shaklda)*)ni va qo'l yozmalarini \*pdf shaklda taqdim etiladi.

15. Tanlovga taqdim etiladigan insholar (o'zbek, rus yoki ingliz tillarida yozilishi mumkin) yozma matnlar ilmiy, texnik, stilistik tahrir qilingan bo'lishi shart. Yozma materiallarning 1-nusxasida talabalarning o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi to'liq ko'rsatiladi, 2-nusxasida o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi ko'rsatilmaydi.

#### VII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

16. Tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichida yuqori (1, 2, 3) o'rinni egallagan talabalar oliy ta'lim muassasalari tomonidan maxsus diplom va qimmatbaho sovg'alar, shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar oliy ta'lim muassasasining faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi. Yuqori (1, 2, 3) o'rinni egallagan talabalarning ijodiy ishlari oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy kanallari va saytlarida yoritiladi.

17. Tanlovning "Eng yaxshi insho" nominatsiyasi bo'yicha Tashkiliy-qo'mita Respublika bosqichida g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi bayonnomani 10 kun muddatda taqdim etishi hamda Iqtisodiyot boshqarmasi oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan o'rnatilgan tartibda talabalarni quyidagi pul mablag'lari va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining diplomlari bilan rag'batlantiradi:

"Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori" va "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzularida "Eng yaxshi insho" tanlovidagi ishlar:

1-o'rin – 3 500 000 (uch million besh yuz ming) so'm;

2-o'rin – 2 500 000 (ikki million besh yuz ming) so'm;

3-o'rin – 1 500 000 (bir million besh yuz ming) so'm.

Shuningdek, Talabalarning eng sara ijodiy ishlari oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy kanallari va saytlarida yoritiladi.